




Ganiyeva Mohigul Odiljonovna

**Annotatsiya:** *tikuvchilik buyumlari texnologiyasi - bu kiyim-kechak, aksessuarlar va boshqa to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini o'z ichiga oladigan ilmiy va amaliy soha. Ushbu texnologiya, mato va boshqa materiallarni kesish, tikish, to'qish va tayyor mahsulotga aylantirish jarayonlarida zamonaviy uskunalar va innovatsion metodlardan foydalanishni talab qiladi.*

**Kalit so'zlar:** *texnologik jarayon, ishlab materiallar, dizayn, tikish, uskunalar, avtomatlashtirish, raqamli materiallar, to'qimachilik aksessuarlar, chiqarish, tikuvchilik tikuvchilar, ekologik*

**Аннотация:** швейная технология – научно-практическая область, включающая процессы производства одежды, аксессуаров и других текстильных изделий. Эта технология требует использования современного оборудования и инновационных методов в процессах раскroя, шитья, ткачества и превращения тканей и других материалов в готовую продукцию.

**Ключевые слова:** технологический процесс, производство, швейные материалы, дизайн, пошив, оборудование, автоматизация, цифровые портные, экологические материалы, текстильная фурнитура.

**Abstract:** garment technology is a scientific and practical field that includes the production processes of clothing, accessories and other textile products. This technology requires the use of modern equipment and innovative methods in the processes of cutting, sewing, weaving and turning fabrics and other materials into finished products.

**Key words:** technological process, production, sewing materials, design, sewing, equipment, automation, digital tailors, ecological materials, textile accessories.

Kiyimning yuzaga kelishi to'g'risida har xil taxminlar va qazilma ishlaridan kelib chiqqan holda xulosalar mavjud. Kiyim insonning ilk rivojlanish davridan boshlab doimo inson bilan birga rivojlanib keldi. Kiyimning dastlabki ko'rinishlari ibtidoiy davr odamlarining qabila bo'lib yashagan davrida paydo bo'lgan. Kiyim ilk bor o'n ikki oy ikki fasldan, ayniqsa qishi qattiq bo'ladijan davlatlarda yuzaga kelgan. Chunki qishning qattiq kelishi kiyimga bo'lgan talabni yuzaga keltirgan. Shuning natijasida terilardan yelkani yopib turuvchi yoping'ichlar va beldan pastki qismini yopib turuvchi buyumlar paydo bo'lgan. Yoz kunlari esa issiqdan saqlanish maqsadida o't-o'lanlardan foydalanishgan. Kiyim keyinchalik issiq vasovq iqlimli davlatlarga tarqalgan. Shundan kelib chiqib kiyimning asosiy vazifasi kishi tanasini tashqi muhit ta'siri (issiq, sovuq, nurlanish, chang) dan himoya qilishdan iborat. Kiyimning shaklida va xarakterida insoniyat jamiyatining rivojlanishi hamda milliy va badiiy madaniyati aks etib turadi.

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

Shuning uchun kiyim kishi tanasini tashqi muhit ta'siridan himoya qilishi bilan birga axborot berish vazifasini ham bajaradi. Kiyim-kechak assortimenti ijtimoiy-iqtisodiy tuzum, iqlim, tashqi muhit, xalq an'analari, xalqning turmush tarzi, yirik ijtimoiy-siyosiy voqealar, sportga ommaviy qiziqish, shuningdek tikuvchilik sanoatining xomashyo bazasida yangi turdag'i materiallarni paydo bo'lishi natijasida yangilanadi. Yangi turdag'i materiallarga tabiiy va sun'iy tolalarning aralashmasidan tayyorlangan materiallar, trikotajdan va to'quv bo'limgan materiallar, kimyoviy tolalar va ularning aralashmalaridan tayyorlangan matolar, sun'iy mo'yna, baxmal kabi matolar, sun'iy va tabiiy charm, yopishtiruvchi termoplastik material, o'rgimchak to'ri, yopishtiruvchi iplar, yopishtiruvchi qoplamlari materiallar shular jumlasidandir. Kiyim bu materiallarning odam tanasidagi qobiq sistemasi bo'lib tanani iqlim ta'siridan saqlaydi va odamning o'ziga xos baz xususiyatlarini namoyon qiladi. Kiyim kishilik jamiyatni rivojlanishining ilk bosqichlarida paydo bo'lgan va jamiyat taraqqiyotiga mos ravishda rivojlanib, o'zgarib kelgan. U ijtimoiy tuzum, texnika va iqtisodiyot taraqqiyoti, xalqlar milliy madaniyati xususiyatlarini, turmush tarzi, iqlim sharoiti, badiiy did va an'analarini o'zida aks ettiradi. Kiyim deganda ich kiyim, ustki kiyim, bosh kiyim, qo'lqop. poyafzal kabilarning keng kompleksi tushuniladi. Tikuvchilik buyumlariga kiyimdan tashqari uy-ro'zg'or buyumlari (dasturxon, sochiq, ko'rpa yostiq jiddlari) texnik buyum va anjomlar (avtomobil g'iloflari va yopqiehlari, chodirlar, qoplar) kiradi. Ich kiyim bu bevosita odam badaniga kiyiladigan kiyimlardir: ich ko'yaklar, ostki yubkalar, tungi ko'yaklar, yaktakchalar, bolalar ishtonlari, kalsonlar, pijamalar. Ishlab chiqarish kiyimi xalq xo'jalagining turli sohalarida ishchi tanasini ifloslanishdan va ish jarayonidagi nomaqbul ta'sirlardan asraydigan kiyimdir. Ishlab chiqarish kiyimi maxsus, sanitariya va rasmiy kiyimlarga bo'linadi. Hozirgi kiyimning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Utilitar kiyim amaliy, himoyaviy, ergonologik, gigienik vazifalarni o'z ichiga oladi.
2. Ijtimoiy kiyim - regional, professional marosimlarga oid simvolik vazifalarni o'z ichiga oladi.
3. Estetik kiyim - badiiy obrazli vazifa bilan aynan estetik vazifani o'z ichiga oladi.

Kiyimning vazifalari tarixan tashkil topgan. Insoniyat taraqqiyotining ilk bosqichlarida kiyim tevarak atrofning salbiy ta'siridan muhofaza vazifasini o'tardi. Turmush tarzi, faoliyat turi kiyimda spesifik elementlar paydo bo'lishiga olib keldi. Kiyim utilitar amaliy vazifalarni bajaradigan bo'ldi.

Tukuvchilik buyumlarini tikishning asosiy bosqichlari. Kiyim tikish jarayoni uch asosiy bosqichdan iborat:

1. Model, konstruksiya va andazalar tayyorlash;

2. Gazlamani tikishga tayyorlash va bichish (ya'ni tayyorlov bichish uchastkasidagi ishlar);

3. Buyumni tikish va bezash.

Kiyimlarni ko'plab ishlab chiqarish uchun buyumlarning modellarini yaratish va loyihalash bilan modalar uyi, texnika, tajriba laboratoriyalari, ayrim korxonalarda esa yuqori malakali rassom modelerlar va konstruktorlari bo'lgan eksperimental sexlar modalar uyi rahbarligida shug'ullanadi. Buyumlarni konstruksiyalash ular konstruksiyasini yaratish jarayonidan iborat. Konstruksiya buyumning haqiqiy

## MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

kattalikdagi chizmasi bo‘lib, unda qirqimlar bo'yicha detallarning tutashish joylari va tikish usullari ko'rsatiladi. Tikuvchilik ustaxonalarida ish o'rnini tashkil qilish. Tikuvchilik ustaxonalarini keng, yorug', quruq va ozoda bo'lishi kerak Devor va mebellarning rangi katta gigenik va pedagogik ahamiyatga ega Shuning uchun devorlar och, sokin ranglarga bo'yaliishi lozim. Ustaxona tabiiy va sun'iy jihatdan yaxshi yoritilgan bo'lishi kerak.Ustaxonada albatta birinchi tibbiy yordam ko'rsatish uchun zarur bo'lgan dori-darmonlar bilan ta'minlangan aptechka bo'lishi zarur. Tikuv ustaxonalarida quyidagi ko'rsatmalar ko'rindigan joylarga osib qo'yiladi:

1. Tikuv ustaxonasining ichki tartib-qoidalari.
2. Havfsizlik texnikasi qoidalari.
3. Mehnat, hunar haqida hikmatli so'zlar.
4. Maxsus adabiyotlar, albomlar joylashtirilgan vitrina.

Tikuvchilik ustaxonasini jihozlash, ish o'rınlarini to'g'ri tashkil etish havfsizlik texnikasi, sanitariya-gigieniya qoidalariiga va estetik talablarga mos ravishda bajarilganda mehnat ko'nikmalarini shakllantirishga, mehnatga to'g'ri munosabatni va mehnat madaniyatini tarbiyalashga imkon yaratiladi. Havfsizlik texnikasi qoidalari.Havfsizlik texnikasi mehnat qilish uchun havfsiz sharoit yaratishga qaratilgan chora tadbirlar sistemasidan iborat.Tikuvchilik darslarida mashinalarni, dazmollar va qo'l asboblarini ishlatayotganda qo'lga igna kirib ketishi. qo'lni nimadir kesib olishi,mashinalarning aylanib turadigan qismlari kiyim yoki sochni o'rab ketishi, dazmolda biror joy kuyib qolishi, tugma yoki igna parchalari uchib yuzga tegishi va hokazo natijasida inson jarohatlanib qolishi mumkin. Dizayn va innovatsiyalar: tikuvchilik buyumlari dizayni iste'molchilar talablariga mos ravishda yaratiladi. Innovatsiyalar, masalan, 3D modellashtirish va virtual reallik texnologiyalari yordamida yangi dizaynlarni yaratish imkonini beradi. Bu esa ishlab chiqarish jarayonini yanada samarali qiladi.Sifat nazorati: tikuvchilik buyumlari sifatini nazorat qilish jarayoni muhim ahamiyatga ega. Mahsulotlarning sifatini ta'minlash uchun har bir bosqichda nazorat o'rnatiladi. Bu iste'molchilarga yuqori sifatlari mahsulotlarni taqdim etishga yordam beradi. Ekologik jihatlar: zamonaviy tikuvchilik sanoati ekologik masalalarga e'tibor qaratmoqda. Ekologik toza materiallar va ishlab chiqarish jarayonlarini qo'llash orqali atrof-muhitga zarar etkazmaslik maqsadida turli tashabbuslar amalga oshirilmoqda.

Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi – bu murakkab va dinamik soha bo‘lib, u iste'molchilar ehtiyojlarini qondirishda va yangi imkoniyatlarni yaratishda davom etmoqda. Innovatsiyalar, ekologik masalalar va sifat nazorati kabi jihatlar bu sohaning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ushbu texnologiya kelajakda ham o'z ahamiyatini yo'qotmaydi va yangi yutuqlarni keltirishi kutilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOT:**

1. Kiyim-kechak ishlab chiqarish texnologiyasi. Rajkishore Nayak va Rajiv Padhye tomonidan tahrirlangan. 2015 Elsevier Ltd.
2. Kiyim ishlab chiqarish texnologiyasi. Devid J. Tayler tomonidan qayta ko'rib chiqilgan to'rt nashr. Blackwell nashriyoti. 2008 yil.
3. Koketkin P.P., Odejda: Texnologiya-texnika, protsessy-kachestvo, Spravochnik.-M.: Izd. MGUDT, 2001 g.-560s.
4. Pershina L.G., Petrova S.V. Texnologiya shveynogo proizvodstva. Uchebnik.-M.: Legpromizdat, 1991g.-416s.
5. Rasulova M. K. Tikuv buyumlari ishlab chiqarish texnologiyasi. Yengil sanoat kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent, «Turon-Iqbol», 2006-y., 176-bet.
6. TIKUVCHILIK TEXNOLOGIYASI ASOSLARI. N.S. GAIPOVA, M.Z. ISMATULLAYEVA, A.S. AXMETOVA, X.Z. ISMATULLAYEVA

